O'zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlarini o'rta muddatli prognozlash.....	841
Fayzullayev Doston Mahmud o'g'li	



Conceptual Foundations of Applying Public-Private Partnership Mechanisms in the Tourism Sector .....	847
Saidov Utkir Uralboyevich	
Tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda xorij tajribasi.....	852
Sattorova Nasiba G'anjon qizi	
Sanoat tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini statistik baholash.....	856
To'rayeva Zilola Turg'unovna	
Tadbirkorlik faoliyatida mijozlar bilan barqaror aloqalarni o'rnatishda CRM strategiyalarining roli.....	860
Xalilova Nafisa Komilovna	
Ways to improve the efficiency of banking services in our country .....	863
Muminova Masuda Bakhtiyorovna	
Agrar sohada investitsion loyihalarni tutgan o'rni va o'ziga xos jihatlari.....	867
Utanov Bunyod Kuvandikovich	
Анализ тенденций развития инновационной деятельности свободных экономических зон узбекистана .....	872
Ачилова Ширин Шавкат кизи	
Korxonani boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari .....	880
Nazarov Sherzod Abdusattor o'g'li	
Роль акционерных обществ в национальной экономике: анализ вклада крупных акционерных обществ в валовой внутренний продукт Узбекистана, их роль в создании рабочих мест и осуществлении инновационной деятельности .....	884
Халекеева Зоя Пирниязовна, Эшов Алишер Ахтамович	
Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mohiyati va nazariy asoslari .....	888
Ashurov Azizbek Asqaraliyevich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati .....	892
Xakimova Gulzora Jamshidovna	
Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko'rsatkichlari.....	896
Xudoyorova Mehrangiz	
Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalalari.....	901
Xomidova Kamola G'olib qizi	
"Silk road stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'naliishlari .....	907
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov	
Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorining rolini oshirish mexanizmlari.....	916
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



# INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA FOND BOZORINING ROLINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Bank ishi kafedrasи dots.nti, PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorini rivojlantirishni nazariy asoslarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'rganishlar asosidagi muhokama va xulosalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investor, investitsiya faoliyati, moliyalashtirish, investitsiya loyihalari, fond, fond bozorlari, real investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar.

**Abstract:** In this article, it is planned to discuss and develop conclusions based on the study of the specific features of the theoretical foundations of the development of the stock market in the financing of investment projects in our national economy.

**Key words:** investment, investor, investment activities, financing, investment projects, fund, stock markets, real investments, financial investments.

**Аннотация:** В данной статье планируется обсудить и разработать выводы на основе изучения особенностей теоретических основ развития фондового рынка при финансировании инвестиционных проектов в нашей национальной экономике.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестор, инвестиционная деятельность, финансирование, инвестиционные проекты, фонд, фондовые рынки, реальные инвестиции, финансовые вложения.

## KIRISH

Investitsiya loyihalarni moliyalashtirish deganda, ajratilgan mablag'larni ma'lum bir investitsiya loyihasingning ehtiyojlari uchun foydalanishning aniq maqsadli mohiyati tushuniladi. Loyihalarni moliyalashtirish asosan moliyaviy aktivlarga emas, balki real aktivlarga investitsiyalarni jaib qiluvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Ma'lumki, investitsiya loyihalari katta xarajatlarni talab qiladi. Ayniqsa, ko'chmas mulk loyihalari. Mablag'larning eng ishonchli sarmoyasi hisoblangan ko'chmas mulk eng moliyaviy intensivlikka aylanmoqda. Loyiha g'oyaning muallifidan boshqa hech kim ishonmasa, dastlabki bosqichda mablag' topish jiddiy muam-moga aylanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy sheriklar investitsiyalar umumiylajmining uchdan bir qismi allaqachon investitsiya qilingan paytda paydo bo'ladi. Agar kompaniyada cheksiz moliyaviy resurslar bo'lsa, hech qanday muammo bo'lmaydi. Ammo puli aniq bo'lmaganlar qo'shimcha moliyalashtirish manbalari izlashlari kerak.

Hozirgi kunda iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, zamонави texnika va yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarini tashkil qilish va rekonstruksiya qilish uchun investitsiyalarni jaib qilish juda muhim ahamiyatga kasb etadi. Bu avvalambor aholi bandligi va daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi. Shu boisdan ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini rivojlantirish va zarur sharoitlarni yaratib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyov tomonidan rivojlanishning uzoq muddatga mo'ljalangan konsepsiyalari ishlab chiqilishi, bu borada birinchi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari qabul qilinib, mazkur dasturlarni ishlab chiqishda moliyalashtirish fondi tashkil etilishi



ta'kidlandi. Bunda iqtisodiyotni rivojlantirishda aholi qo'lida to'plangan mablag'larni investitsiya shaklida harakatga keltirish, mamlakatimizda tadbirkorlik hissini kuchaytirish muhim vazifalarimizdan biri ekanligi e'tirof etildi [1].

Taniqli iqtisodchi olimlardan U. Sharp ham investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, fondning daromadliligi va riskliligi o'ttasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqaga ega bo'lgan oqilonqa investitsion strategiya investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporatsiyalarni fond bozoridan qo'shimcha mablag'lar jaib qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi [2].

Fikrimizcha, Ya.Mirkinning fond bozori orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi xususidagi fikri alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, ko'pchilik MDH mamlakatlarida korporativ aksiya va obligatsiyalarga qilinadigan investitsiyalarning risk darajasi yuqoriligi va investorlar ishonchining pastligi fond bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar ekanligi qator ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan [3].

U.Sharpning investitsion loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositachilarning roli xususidagi fikriga muvofik, ular investitsion faoliyatni moliyalashtirishning faol subyektlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.G'.G'ozibekov "investitsiya- larning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi" kabi ta'rif bergan[4].

Ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlariда respublikamizda investitsiya faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishning ayrim jihatlari yoritilgan. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullariga ta'sir etuvchi omillar asosida rivojlanish yo'llarini tadqiq etish va ularni moliyaviy ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha chuqur tadqiqotlarni amalga oshirishni, bularni mamlakatimiz amaliyotiga tadbiq qilib investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirish jarayonlarini jadallashtirish lozimligini talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining iqtisodiyotimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorini rivojlantirish usullarining nazariy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini tanlash nafaqat investitsiya faoliyatining hayotiyigini, balki undan keladigan yakuniy daromadning taqsimlashni, ilg'or kapitaldan foydalanish samaradorligini va investitsiyalarni amalga oshiradigan tashkilotning moliyaviy barqarorligini ham belgilaydi. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi va tuzilishi jamiyatning faoliyat mexanizmiga bog'liq.

Aytish joizki, bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi tomonidan valyuta, pul, davlat fondi bozorlarida va, 2022 yildan boshlab esa, derivativlar bozorida birja savdolari tashkil etilgan bo'lib, uning xizmat turlari davlat fondini hisobga olish va ularni saqlash bo'yicha depozitar xizmatlarni ko'rsatish hamda birja savdolari bo'yicha hisob-kitob va kliringni amalga oshirish kabi muhim funksiyalarni ham qamrab olgan. Ushbu bozorda O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasining elektron savdo-depozitar platformasi orqali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachilik majburiyatları va obligatsiyalari, shuningdek Markaziy bankning obligatsiyalari birlamchi joylashtirilishi va ikkilamchi muomalasi bo'yicha savdolar, shuningdek REPO operatsiyalari tashkil etilgan.

2022-yilda ushbu bozorda jami 87,29 trln. so'm qiymatida davlat fondi joylashtirilgan bo'lib, 2021-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich 3,5 barobar oshdi .

Shuningdek, 2022-yilda O'zbekiston fond birjasida 4,8 trillion so'mlik fond bilan 80,7 mingta bitim amalga oshirildi.

Oldi-sotdi bitimlari soni 12 foizga, hajmi esa qariyb to'rt barobar oshdi. Bitimlar miqdorining bunday sezilarli o'sishi, tuyulishi mumkin bo'lgan chakana savdo bozorining tez o'sishi bilan emas, balki birjada yirik bitimlar amalga oshirilganligi bilan bog'liq.

Investorlar, xaridorlar va sotuvchilar bir-birini taniydigan, kelishilgan aukcion qismida kompaniyalarning katta ulushlarini sotib oldi.

Masalan, "Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyatining 98,57 foizi shu tarzda 1,9 trillion so'mga sotilgan.



Bu umumiy savdo hajmining taxminan 40 foizini tashkil qiladi. Xuddi shunday, ular "Kapitalbank", "Garant Bank" va boshqa kompaniyalar aksiyalarini sotishgan, bu ham bitimlar miqdoriga hissa qo'shgan.

Dunyoning eng yirik fondlarining ba'zi menejerlari 2023-yilda global fond bozorida ikki xonali foiz o'sishini bashorat qilmoqda, bu esa bu yil sodir bo'lgan pasayishni qisman qoplaydi. Juhon fond bozorida o'sishni respondentlarning 71% kutmoqda, pasayish - 19%, qolgan 10% esa hali qaror qilmagan.

2023-yilda MSCI All-Country World Index uchun o'ttacha katta prognozi taxminan 10% ni tashkil qiladi va ular inflyatsiyaning eng yuqori cho'qqisiga chiqqani va Fed o'z pozitsiyasini yumshatishini optimizm uchun sabab sifatida ko'rsatishmoqda.

Investitsion resurslarning ushbu taqsimoti faqat real investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta'minlash jarayonida qo'llaniladi.

Investitsiya faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uning investitsiya resurslarini maqsadli shakllantirish bilan belgilanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirishning asosiy maqsadi investitsiya faoliyatining samarali natijalarini ta'minlash nuqtayi nazaridan zarur investitsiya aktivlarini sotib olish ehtiyojlarini qondirish va ularning tuzilishini optimallashtirishdir.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usuli deganda loyihaning moliyaviy maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida investitsiya resurslarini jalg qilish tushuniladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'li bevosita moliyaviy dastaklarni ishga solish bilan bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, investorlarning investitsiya loyihasini amalga oshirishda manfaatdorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatini tashkil etish doimo investorlar bilan bog'liq bo'lishi ularning moliyaviy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradigan loyihalarda yuzaga chiqarishga qaratiladi.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini turli manbalar hisobidan ta'minlash asosida iqtisodiy tarmoqlarini moliyalashtirishning tarkibi va dinamikasini tahlil qilgan holda tarmoqlarning rivojlanishi investitsiyalarni jalg etish holatiga qanchalik bog'langanligini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, ularni jalg etishga intilish natijasi jalg etish sur'atlari bilan bevosita bog'liqligi ham kelib chiqadi [5].

#### 1-jadval. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining qiyosiy tavsifi<sup>1</sup>.

Moliyalashtirish manbalar	Afzalliklari	Kamchiliklari
<b>Ichki manbalar (o'z kapitali)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Safarning qulayligi, mavjudligi va tezligi.</li> <li>2. To'lov qobiliyatsizligi va bankrotlik xavfini kamaytirish.</li> <li>3. Jalb qilingan manbalar bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish zarurati yo'qligi sababli yuqori rentabellik.</li> <li>4. Ta'sischilarga egalik qilish va ularni boshqarish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Olingen mablag'larning cheklangan miqdori.</li> <li>2. O'z mablag'larini iqtisodiy aylanmadan yo'naltirish.</li> <li>3. Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi cheklangan mustaqil nazorat</li> </ul>
<b>Tashqi manbalar (jalb qilingan kapital)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Katta miqyosda mablag' to'plash imkoniyati.</li> <li>2. Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ustidan mustaqil nazorat mavjudligi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Pul mablag'larini to'plash tartibining murakkabligi va davomiyligi.</li> <li>2. Moliyaviy barqarorlikning kafolatlarini ta'minlash zaruriyat.</li> <li>3. To'lov qobiliyatsizligi va bankrotlik xavfini oshishi.</li> <li>4. Jalb qilingan manbalar bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish zarurati tufayli foydaning kamayishi.</li> </ul>

Investitsiya faoliyatini iqtisodiy boshqarish yo'li bevosita moliyaviy dastaklarni ishga solish bilan bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, investorlarning investitsiya loyihasini amalga oshirishda manfaatdorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish doimo investorlar bilan bog'liq bo'lishi ularning moliyaviy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradigan loyihalarda yuzaga chiqarishga qaratiladi. Bunda investitsiya loyihasini moliyalashtirish orqali yuzaga keladigan investitsiya faoliyatidan uning har bir ishtirokchilari singari, albatta, davlat va jamiyat samara ko'rishi ham talab etiladi [6].

Amaldagi moliyalashtirish manbalarining har biri ma'lum afzalliklar va kamchiliklarga ega. Shu sababli har qanday investitsiya loyihasini amalga oshirish moliyalashtirish strategiyasini asoslashni, moliyalashtirishning alternativ usullari va manbalarini tahlil qilishni, moliyalashtirish sxemasini puxta ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

<sup>1</sup> Иқтисодий адабиётларни ўрганиш натижасида муаллиф томонидан тузилган.



Ishlab chiqilgan moliyalashtirish sxemasi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- umuman investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun va hisob-kitob davrining har bir bosqichida yetarli miqdordagi investitsiyalar;

- investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibini optimallashtirish;
- kapital harajatlar va investitsiya loyihalari xavfini kamaytirish.

Investorlarning milliy iqtisodiyotga mablag' kiritishi ko'p jihatdan nafaqat korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosi joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatga ham bog'liq. Investorlar mablag' yo'naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qildilar. Mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda [7].

Xalqaro amaliyotda loyihalarni moliyalashtirish deganda investitsiyalarning qaytarilishini ta'minlashning o'ziga xos usuli bilan tavsiflanadigan, loyihaning o'zi, keljakda yangi tashkil etilayotgan yoki qayta tashkil etilgan korxonaning daromadlari, investitsion fazilatlariga asoslangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tushuniladi. Loyihani moliyalashtirishning o'ziga xos mexanizmi investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini tahlil qilish va ular bilan bog'liq xavflarni baholashni o'z ichiga oladi va investitsiyalar daromadliligi uchun barcha xarajatlar qoplangandan keyin qolgan daromadlar kiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, investitsiyalar kompaniya qiymatining o'sishiga va shunga mos ravishda uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omil hisoblanadi. Bu firmanın aktivlari va nomoddiy aktivlарини ко'paytirадиган investitsiyalardir. Shunday qilib, korxonaning investitsion faoliyati uning maqsadli va ijodiy funksiyasi deb ta'kidlash qonuniy ko'rindi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari va rivojlanayotgan yoki inqirozga uchragan davlatlar uchun milliy iqtisodiyotning global darajada texnik yoki texnologik holatini saqlab turishni yoki unga erishishni ta'minlaydigan investitsiya qarorlarini qabul qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantiruvchi investitsiya siyosati ushbu yo'nalishdagi iqtisodiy harakatlar eng muhim vositalardan biridir.

Milliy iqtisodiyotimiz uchun xorijiy investitsiyalarning ahamiyati bir qator omillarga bog'liq, ular orasida alohida ajralib turadi: yirik investitsiya loyihalarini qo'shimcha moliyalashtirish imkoniyati; eng yangi texnologiyalar va uskunalarga, innovatsion loyihalarga chet el sarmoyasini jalb qilish orqali ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ko'pincha korxonalarini texnik va moliyaviy jihatdan kuchli bo'lgan raqobatchilardan himoya qilish istagi bilan ta'qib qilinadi. Masalan, import qilinadigan tovarlarga katta miqdordagi import bojlari joriy etilishi munosabati bilan respublikamiz korxonalariga o'zlarining eskirgan mahsulotlarini ichki bozorlarda keyinchalik oshirilgan narxlarda sotish uchun qulay imkoniyat yaratilmoqda.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini takomillashtirishda quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish moliyalashtirish sifatini ta'minlash va ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi:

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullari xususiyatlarini tadbiq qilishning xorij tajribalarini o'rganish hamda uning milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tadqiq etish;

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni soddalashtirish, ekspertiza mudatlarini sun'iy ravishda uzayib ketishlariga yo'l qo'ymaslik;

- investitsiya loyihalarini tashabbuskorlarining tijorat banklari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida bank tizimi bilan qarz oluvchilar manfaatini integratsiyalashda o'zaro munosabatlarni ikki tomonlama ishonch va shartnomaga asosida qurish;

- investitsiya loyihalarining tashabbuskorlari duch kelayotgan asosiy muammolardan biri moliyaviy resurslarning yetishmasligi va uni olish murakkabligi pasaytirish uchun, moliyalashtirishning noan'anaviy usullaridan (lizing yoki seleng, sinditsiyalashtirilgan kredit, venchurli moliyalashtirish, kradfonding, kraudinvesting) faol foydalanish lozim.

- mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarini va ularagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiyashtirish ishlarni jadallashtirish maqsadga muvofiq.

- aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan jamiyat aksiyalarini fond birjasining birja kotirovka varag'idan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilinganda, ushbu jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlarga o'zlariga tegishli aksiyalarning jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqini berish lozim.



Yuqorida ko'rib o'tilgan vazifalarni imkon qadar tezroq va samarali o'z yechimini topishi, nafaqat, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashta, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini va aholining farovon hayot tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yuxati

1. Шарп У. идр. Инвестиции. Пер. с англ.-М. ИНФРА-М, 2001.-С. 9-10.
2. Миркин Я. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. – Москва: Альпина Паблишер. 2002. – С. 117.
3. Фозибеков Д.Ф. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари - Т.:2002. и.ф.д. дисс. автореф. 11-14 б.
4. Рай А. Лисаковская специальная в глобальной сети экономических зон // Каржы - Каражат. - 1998. № 9. С. 51-55.
5. Ж.Умирзоқов. Махсус иқтисодий зоналарда инвестицион фаолликни ошириш истиқболлари. 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. Тошкент 2022 йил, 12 бет.
6. Тимонина И.Л. Япония: опыт регионального развития. М.: Наука, 1992.
7. Друзик С.Я. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: учебетлар. Пособие. Мн.: “ФУА.информ”, 2000. С. 368.
8. Ивченко В.В., Самойлова Л.БЕТЛАР. Свободные экономические зоны в зарубежных С.анах и России. Учебное пособие. Калининград: Янтарный сказ. 1999. - 167С.
9. Данько Т., Оқрут З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учебетлар. Пособие / Российская экономическая академия им. .В.Плеханова. М.: Инфра-М., С.1998. 168.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

